XALQ DEPUTATLARI SHAHRISABZ TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 30 - iyul VI-44-58-4-67-K/22 Shahrisabz tuman hokimligi

Shahrisabz tuman mahalliy budjetining 2022-yil moliya yili mobaynidagi xarajatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27-moddasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasini raisi, bosh vazir o‘rinbosarining 2022-yil 13-apreldagi 04-01/140-sonli xatini inobatga olib, tuman mahalliy budjetining 2022-yil moliya yili mobaynidagi xarajatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi tuman hokimligi moliya bo‘limini taqdim etgan hisobotini ko‘rib chiqib, xalq deputatlari Shahrisabz tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman mahalliy budjetining 2022-yil moliya yili mobaynidagi xarajatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri A.Bozorovning taqdim etgan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-146-sonli qaroriga asosan tumanda tashkil etilgan oila va xotin-qizlar bo‘limining ish haqlarini o‘z vaqtida moliyalashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasini raisi, bosh vazir o‘rinbosarining 2022-yil 13-apreldagi 04-01/140-sonli xatini inobatga olib, tuman mahalliy budjetining 2022-yil moliya yili mobaynidagi xarajatlariga o‘zgartirishlar kiritish ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri (A.Bozorov)ga;

O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi talablariga asosan tuman mahalliy budjetining 2022-yil moliya yili mobaynidagi xarajatlariga belgilangan tartibda mazkur qarorning ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan o‘zgartirishlarni kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Shahrisabz tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Rustamovlar zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi



S.A.Xasanov

Xalq deputatlari Shahrisabz tuman Kengashining
2022 yil 30 iyuldagi
VI-44-58-4-67-K/22-son qaroriga
1-ilova

Shahrisabz tuman mahalliy budjetining 2022 yil moliya yili mobaynidagi xarajatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

ming so‘mda

t/r	Tashkilotlar nomi	Bo‘lim, kichik bo‘lim, bob	xarajatlar moddasi	Jami yillik								
					3-chorak	iyul	avgust	sentabr	4-chorak	oktabr	noyabr	dekabr
1	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (MFY)	7011-402-259	41-11-100	**-404316**	**-202158**	0	-134772	-67386	**-202158**	-67386	-67386	-67386
			41-21-100	**-100068**	**-50034**	0	-33356	-16678	**-50034**	-16678	-16678	-16678
		jami	**x**	**-504384**	**-252192**	**0**	**-168128**	**-84064**	**-252192**	**-84064**	**-84064**	**-84064**
2	Tuman hokimligi (oila va xotin-qizlar bo‘limi)	7085-400-026	41-11-100	**404316**	**202158**	0	134772	67386	**202158**	67386	67386	67386
			41-21-100	**100068**	**50034**	0	33356	16678	**50034**	16678	16678	16678
		jami	**x**	**504384**	**252192**	**0**	**168128**	**84064**	**252192**	**84064**	**84064**	**84064**
JAMI			41-11-100	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
			41-21-100	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
			x	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**